

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*60210500 – Rangtasvir bakalavriat ta'lim yo'nalishining*

***MALAKA TALABI***

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLILGAN VA KIRITILGAN:**

Kamoliddin Behzod nomidgi Milliy rassomlik va dizayn instituti.

O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil "25" iyun dagi 218 – sonli buyrug'i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	6
3.	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	7
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	7
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	11
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	12

## **1. Umumiy tavsifi**

60210500 – Rangtasvir ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 60210500–Rangtasvir ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Bolalar musiqa va san'at maktablari, barkamol avlod bolalar maktablari, ixtisoslashtirilgan san'at va dizayn maktablarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, sohaga oid Davlat va nodavlat tashkilotlarida badiiy bezak ishlarini tayyorlash, ijodiy loyiha va badiiy ekspozitsiyalarni tashkil etish va joylashtirish, portret, manzara, natyurmort, maishiy, batal janrlarida badiiy kompozitsion asarlar yaratish, respublika va xorijiy ko'rgazma zallari va galereyalarda ijodiy ko'rgazmalarini tashkil qilish, Badiiy ijodkorlar uyushmasida erkin ijodiy faoliyat olib borish, animatsion filmlar uchun eskiz loyihalarini ishlab chiqish, film, teatr va ommaviy tomoshalar sahnalarida dekoratsiya eskizlari hamda dekoratsiyalar yaratish bilan bog'liq kasbiy sohalar majmuasini qamrab oladi.

### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari

- O'zbekiston Badiiy akademiyasi;
- Badiiy ijodkorlar uyushmasi;
- O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi;
- Madaniy meros agentligi;
- Muzey va tasviriy san'at galereyalari;
- O'zbekkino Milliy agentligi;
- Davlat va nodavlat tashkilotlari ichki va tashqi inshootlari;
- rangtasvir sohasida arxitektura inshootlarining interer va ekstererlari;
- ommaviy tomosha maydonlari sahnalari;
- filmlarni suratga olish maydonlarida **rassom**.

60210500 – Rangtasvir bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstruktorlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### 1.2.4. Kasbiy vazifalari.

60210500 – Rangtasvir ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo'lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

Respublika va xorijda chop etilgan sohaga oid ilmiy manbalarini o'rganish; mutaxassislikka mos yangi badiiy asarlar yoki badiiy ijodiy tadqiqot loyihalarini tahlil qilish;

mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-ijodiy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

Respublika va xalqaro badiiy ko'rgazmalarga rangtasvir asarlarini tayyorlash, ижодий faoliyatini amalga oshirish;

ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda ishtirok etish.

tasviriy san'at asarlari loyahasini tizimli yondashuv asosida yaratishni takomillashtirish;

amaliy faoliyatda zamonaviy axborot texnologiyalari, kompyuter texnikasi va kommunikatsion vositalaridan foydalanish;

zamonaviy texnologik jarayonlarni qo'llash;

ilmiy asoslangan tizimlarni tavsiya etish va foydalanish;

tasviriy san'at asarlarini badiiy tahlil qilish.

**Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;
- tashkilot, korxonalaridagi rassom va dizayn sohasiga oid bo'limlarni boshqarish;
- ijodiy asarlarini yaratishda yangi innovatsion loyihalar va texnologik jarayonlarning tadbiiq qilinishini tashkil qilish;
- faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;
- kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyotga tadbiiq etish, ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish;
- ijodiy guruh faoliyatini tashkil qilish;
- loyiha xarajatlarini tuzish va rasmiylashtirish;
- texnik xavfsizlik qoidalarini bilish va amal qilish.

**Loyihaviy- konstruktiv faoliyatida:**

Tasviriy san'at sohalarida loyihalarini ishlab chiqish, texnologik jarayonlar va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha ixtisoslik fanlarni o'rganish va chuqur egallash uchun zarur bo'lgan fundamental umumkasbiy bilimlarni, amaliy ko'nikma va malakalarini shakllantirishi, kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil qilishi;

tasviriy san'atning umumiy tarixi, san'at tarixi, taniqli jahon va O'zbekiston rangtasvir san'ati rassomlar ijodini va tasviriy san'atning yo'nalishlarini bilish;

badiiy akademik maktab qonunlarini, chizmasvir, rangtasvir, kompozitsiya va mutaxassislik fanlardan ko'nikma va mahoratga ega bo'lish;

jonli va jonsiz obektlarning (natura) badiiy chizmasini chizish va rangda yozish, mavzuga oid kompozitsiyalar tuzish va turli texnologiyalarida ijrosini amalga oshirish, asarning badiiy yechimini ishlab chiqish, badiiy didga ega bo'lish;

turli janrlarda tasviriy san'at asarlarini yaratish;

ijodiy guruh va loyihalarni boshqarish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish;

loyihalar, biznes-rejalarni shakllantirish hamda boshqarish, ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish;

kompyuter texnologiyalaridan foydalanish amaliy ko'nikma va mahoratiga ega bo'lish;

ko'rgazmalarda konseptual kompozitsiyalarini zamonaviy talablarini o'rganish va ishlash;

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. O'quv malakaviy amaliyoti;
2. Ishlab chiqarish amaliyoti;
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

## 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Faning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	O'EYat1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.02	Fals1104	Falsafa	120	4	1
1.03	XT1104	Xorijiy til	120	4	1
1.04	SSAT1104	San'at sohasida axborot texnologiyalar	120	4	2
1.05	Oz'T1104	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.06	Din 1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.07	PA1204	Plastik anatomiya	120	4	1,2
<b>Dastgohli rangtasvir turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	Rang1770	Rangtasvir	2100	70	1,2,3,4,5,6,7
1.09	Chiz1770	Chizmatasvir	2100	70	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Komp1707	Kompozitsiya	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.11	Ashish1408	Ashyoda ishlash	240	8	1,2,3,4
1.12	RM1204	Rangtasvirda materialshunoslik	120	4	1,2
1.13	RTTNK1505	Rangtasvir texnika texnologiyasi va nusxa ko'chirish	150	5	3,4,5,6,7
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>8</b>	<b>3,4,5</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	8	3,4,5
Kvalifikatsiya		Rassom: rangtasvir rassomi			
<b>Teatr-bezak rangtasviri turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	TSUT1208	Tasviriy san'at umumiy tarixi	240	8	3,4
1.09	Rang1756	Rangtasvir	1680	56	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Chiz1754	Chizmatasvir	1620	54	1,2,3,4,5,6,7
1.11	TBK1712	Teatr bezagi kompozitsiyasi	360	12	1,2,3,4,5,6,7
1.12	Alsh1707	Ashyoda ishlash (Maketlashtirish)	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.13	RTVT1102	Rangtasvir texnika va texnologiyasi	60	2	1
1.14	RVKA1102	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	60	2	2
1.15	STVT1505	Sahna texnika va texnologiyasi	150	5	3,4,5,6,7
1.16	TT 1104	Teatr tarixi	120	4	5
1.17	LT1204	Libos tarixi	120	4	6,7
1.18	Pers1106	Perspektiva	180	6	3
1.19	TR1104	Teatr rejissurasi	120	4	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>4,5,6</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	4,5,6
Kvalifikatsiya		Rassom: teatr rassomi			



<b>Multifilm va kompyuter multiplikatsiyasi turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	TSUT1208	Tasviriy san'at umumiy tarixi	240	8	3,4
1.09	Rang1756	Rangtasvir	1680	56	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Chiz1754	Chizmatasvir	1620	54	1,2,3,4,5,6,7
1.11	AK1714	Animatsiyada kompozitsiya	420	14	1,2,3,4,5,6,7
1.12	ATHA1505	Animatsiyada tasviriy harakat asoslari	150	5	3,4,5,6,7
1.13	RTVT1102	Rangtasvir texnika va texnologiyasi	60	2	1
1.14	RVKA1102	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	60	2	2
1.15	MKD1505	Multiplikatsiyada kompyuter dasturlari	150	5	3,4,5,6,7
1.16	MT 1104	Multiplikatsiya tarixi	120	4	5
1.17	LT1204	Libos tarixi	120	4	6,7
1.18	Pers1106	Perspektiva	180	6	3
1.19	MRA1104	Multiplikatsiyada rejissura asoslari	120	4	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>3,4,5,6</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	3,4,5,6
Kvalifikatsiya		Rassom: rassom-animator			
<b>Filmning tasviriy yechimi turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	TSUT1208	Tasviriy san'at umumiy tarixi	240	8	3,4
1.09	Rang1756	Rangtasvir	1680	56	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Chiz1754	Chizmatasvir	1620	54	1,2,3,4,5,6,7
1.11	KK1712	Kino kompozitsiyasi	360	12	1,2,3,4,5,6,7
1.12	Alsh1707	Ashyoda ishlash (Maketlashtirish)	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.13	RTVT1102	Rangtasvir texnika va texnologiyasi	60	2	1
1.14	RVKA1102	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	60	2	2
1.15	KDLT1505	Kino dekoratsiya loyihalash texnologiyasi	150	5	3,4,5,6,7
1.16	KT 1104	Kino tarixi	120	4	5
1.17	LT1204	Libos tarixi	120	4	6,7
1.18	Pers1106	Perspektiva	180	6	3
1.19	KR1104	Kino rejissura	120	4	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>3,4,5,6</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	3,4,5,6
Kvalifikatsiya		Rassom: kino rassomi			
<b>Mahobatli rangtasvir turi bo'yicha majburiy fanlar</b>					
1.08	TSUT1208	Tasviriy san'at umumiy tarixi	240	8	3,4
1.09	Rang1764	Rangtasvir	1920	64	1,2,3,4,5,6,7
1.10	Chiz1760	Chizmatasvir	1800	60	1,2,3,4,5,6,7
1.11	Komp1707	Kompozitsiya	210	7	1,2,3,4,5,6,7

1.12	MRAshIsh1707	Mahobatli rangtasvirda ashyoda ishlash	210	7	1,2,3,4,5,6,7
1.13	RVKA1204	Rangshunoslik va kompozitsiya asoslari	120	4	1,2
1.14	LM1505	Loyihalash va maket	150	5	3,4,5,6,7
1.15	RTT1505	Rangtasvir texnika texnologiyasi	150	5	3,4,5,6,7
1.16	DR1104	Dekorativ rangtasvir	120	4	5
2.00		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>360</b>	<b>12</b>	<b>3,4,5,7</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	360	12	3,4,5,7
Kvalifikatsiya		Rassom: mahobatli rangtasvir rassomi			
		<b>Jami:</b>	<b>6120</b>	<b>204</b>	
		Malakaviy amaliyot	840	28	(4,6,8)
		Bitiruv malakaviy ishi	240	8	8
		<b>Jami:</b>	<b>1080</b>	<b>36</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat jabhasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi (bakalavriat dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv sikli, kulol, amaliy, ta'mir, konservatsiya, rekonstruksiya, proyeksiya, aksonometriya, bezak, rapport, analogiya, xajmiy-fazoviy yechim, fiksatsiya, umumiy, yaxlitlik, qoralama, eskiz, karton, dinamika, statika, dinamika, simmetriya, assimetriya, ritm, shakl, o'lcham, axromatika, xromatika, kompozitsion yechim, kompozitsion joylashuv, mozaika, mayolika, terrakota, kundal, ganch, naqqoshlik, geometrik tahlil, fazoviy chuqurlik, siluet, refleks, etyud, faktura, kolorit.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

**ISHLAB CHIQUILGAN:**

**Kamoliddin Behzod nomidagi  
Milliy rassomlik va dizayn instituti**

Rektor  A. Mirzoraximov

2024 yil "25" 06  
M.O.

**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti**

Rektor  N. Sayfullayev

2024 yil "25" 06  
M.O.

**KELISHILGAN:**

**O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi**

Direktor  M. Boltabayev


2024 yil "25" 06  
M.O.

**Alisher Navoiy nomli Davlat Akademik  
Katta teatri**

Direktor  R.B. Usmanov

2024 yil "25" 06  
M.O.

**O'zbekiston Badiiy akademiyasi**

Raisi  A. Nuridinov

2024 yil "25" 06  
M.O.

**P. Benkov nomidagi Respublika  
ixtisoslashtirilgan rassomlik maktabi**

Direktor  U.B. Hakimov

2024 yil "25" 06  
M.O.